Mashg‘ulotning texnologik xaritasi

O‘quv bloki	**III. Kimyo fanni o‘qitishga zamonaviy yondashuvlar**				
O‘quv modul	3.3. “Kimyo darsini loyihalash asoslari”				
Mavzu	Kimyo darsiga tayyorgarlik ko‘rish va uni loyihalash.				
Davomiyligi	80 daqiqa				
Mashg‘ulotning maqsadi	• O‘qituvchilarga kimyo darslarini konstruktiv yondashuv asosida loyihalash, didaktik material turlari va didaktik materiallarda hayotiy yoki o‘quvchilarga tanish bo‘lgan holatlarning bo‘lishi muhimligi tushuntirish; • O‘qituvchilarda kimyo darsi rejasini tuzish, tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishda modeldan foydalanish, tadqiqot maqsadini belgilash va reja tuzish, tadqiqot o‘tkazish, tadqiqot natijalarini tahlil qilish, baholash va xulosalash bosqichlarini amalga oshirish, oddiy va tushunarli didaktik materiallardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish.				
Mashg‘ulot bosqichlari	**Faoliyat tavsifi**	**Vaqt, daqiqa**	**Metodlar**	**Zarur jihozlar**	**Natija**
1. Tashkiliy qism	- Salomlashish; - mavzu va reja bilan tanish-tirish.	5	Suhbat, tushuntirish	1-2-slaydlar	O‘qituvchilar mashg‘ulotni o‘rganishga tayyor bo‘lishadi.
2. Motivatsiya	- Qiziqarli jumboq yoki muammoli savol - “Mavzuning dolzarbligi” haqida qisqa muhokama	5	Muammoli vaziyat yaratish, muhokama	3-slayd 1-ilova	O‘qituvchilar mavzuga qiziqib, ishtirok etishga rag‘batlanadi.
3. Nazariy qism	O‘qituvchilarga kimyo darslarini konstruktiv yondashuv asosida loyihalash, didaktik material turlari va didaktik	15	Taqdimot, ko‘rgazma-li tushun-tirish	4-21- slaydlar	O‘qituvchilar kimyo darslarini konstruktiv yondashuv asosida loyihalash, didaktik material turlari va didaktik

	materiallarda hayotiy yoki o‘quvchilarga tanish bo‘lgan holatlarning bo‘lishi muhimligi tushuntirish; - O‘qituvchilarda kimyo darsi rejasini tuzish, tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishda modeldan foydalanish, tadqiqot maqsadini belgilash va reja tuzish, tadqiqot o‘tkazish, tadqiqot natijalarini tahlil qilish, baholash va xulosalash bosqichlarini amalga oshirish, oddiy va tushunarli didaktik materiallardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish.				materiallarda hayotiy yoki o‘quvchilarga tanish bo‘lgan holatlarning bo‘lishi muhimligini nazariy jihatdan o‘rganadi.
4. Amaliy mashg‘ulot	- Guruhlarda ishlash: Har bir guruhga dars rejasini tuzish vazifasini berish.	35	Guruhlarda ishlash	1- tarqatma; 21-slayd	O‘qituvchilar mavzu yuzasidan amaliy ko‘nikmalar hosil qiladi.
5. Tahlil va muhokama	- Guruhlar ishlari bo‘yicha taqdimotlar; - Qiyinchiliklarni muho-kama qilish; - Mashg‘ulot jarayoni bo‘yicha fikr-mulohazalar	10	Suhbat, muhokama, tahlil	21-slayd; 3-ilova	O‘qituvchilar o‘z tajribalarini o‘rtoqlashadi va yangi g‘oyalarni o‘zlashtiradi.

	olish				
6. Refleksiya	- “Men nimani o‘rgandim?” usuli orqali xulosa qilish	5	Refleksiya usullari	22-slayd	O‘qituvchilar o‘z faoliyatini baholaydi va o‘rganilgan ma’lumotlarni qayta ko‘rib chiqadi.
7. Yakunlash va baholash	- Mashg‘ulot natijalarini umumlashtirish - Kelgusi mashg‘ulotlar uchun tavsiyalar berish	5	Suhbat	23-slayd	O‘qituvchilar mashg‘ulotdan qoniqish bilan chiqadi va yangi maqsadlarga yo‘naltiriladi.

Ilovalar

1-ilova. Tinglovchilarga quyidagi ko‘rinishdagi savollar bilan murojat qilinadi (namuna):

1. Kimyo fanida hayotiy holatlar yoki kundalik hayotdan misollar keltirish o‘quvchilarning tushunishini qanday yaxshilaydi?

2. Konstruktiv yondashuv nima va kimyo darslarida uni qo‘llashning afzalliklari nimalardan iborat?

2- ilova 1-tarqatma material

Tinglovchilar 4 ta guruhga bo‘linishadi va har bir guruhga quyidagi amaliy topshiriq matni tarqatiladi.

1-guruh uchun topshiriq

Kimyo darsi rejasini tuzing. Tanlangan mavzu bo‘yicha dars rejasini tuzishda barcha bosqichlarni (darsning maqsadi, metodlari, tadqiqot materiallari, faoliyatlar) ko‘rsating. Reja tuzishda o‘quvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga e’tibor bering.

2-guruh uchun topshiriq

Kimyo darsi rejasini tuzing. Tanlangan mavzu bo‘yicha dars rejasini tuzishda barcha bosqichlarni (darsning maqsadi, metodlari, tadqiqot materiallari, faoliyatlar) ko‘rsating. Reja tuzishda o‘quvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivoylantirishda modellardan foydalaniashga qaratilgan topshiriqlarga e’tibor bering.

3-guruh uchun topshiriq

Kimyo darsi rejasini tuzing. Tanlangan mavzu bo‘yicha dars rejasini tuzishda barcha bosqichlarni (darsning maqsadi, metodlari, tadqiqot materiallari, faoliyatlar) ko‘rsating. Reja tuzishda o‘quvchilarni darsga jalb qilish bosqichiga alohida e’tibor bering.

4-guruh uchun topshiriq

Bitta mavzu uchun bir nechta turdagi didaktik material ishlab chiqing va ularni darsning turli bosqichlariga moslashiring.

3-ilova. Har bir guruh quyidagi savollarga javob berishadi va jadvalni to‘ldirishadi.

a) Topshiriqni bajarish jarayonida qanday qiyinchiliklarga duch keldingiz?
b) Guruhda ishlashning afzalliklari nimada?
c) Topshiriqni bajarish jarayonida nimalarni o‘rgandingiz?

Kamchiliklar	**Afzalliklari**